

VOL 4. ISSUE 9



JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES



zenodo


OpenAIRE | EXPLORE

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

ISSN:
3030-3311

VOLUME | 4 ISSUE | 9 | APRIL | 2026



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV ISHLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Primov Sherzod


Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: primovsherzod@gmail.com

ANNOTATION:

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida o'quv ishlarni tashkil etish bo'yicha milliy va xorijiy tajribalardan foydalanish masalasiga e'tibor qaratilgan shu bilan birga yoshlarning o'quv ishlarni tashkil etish samaradorligi darajasini oshirish, rivojlangan davlatlarning pedagogik talim tizimlari to'g'risidagi fikrlar keltirilgan. Ko'plab davlatlarida global raqobat sharoitidagi yangi talablariga javob beruvchi, moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv ishlarni tashkil etish va xorijiy tajribalardan foydalanishni amalda qo'llashni o'rgatish barkamol avlodni har davrda uzviy o'sishini jamiyat hayotida komil insonni tarbiyalash nafaqat zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish, balki ma'naviy etuklik va axloqiy yuksaklikka erishish asosini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

KEYWORDS:

o'quv ishlari, o'quv jarayoni, oliy o'quv yurtlari, ilmiy salohiyat, bilim, o'quv dasturlari, pedagogik texnologiyalar.



April 28, 2026,
Published Date:
April 30, 2026

Journal Website:

<https://d-prensa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under a
[Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/)

Kirish

Jahonning ko'plab davlatlarida global raqobat sharoitidagi yangi talablariga javob beruvchi, moslashuvchan ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda asosiy maqsad oliy ta'lim muassasalarining va o'quv dasturlarining moslashish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish akademik va tashkiliy tuzilmani isloh qilish, infrastrukturani, ta'lim metodlari va texnologiyalarini yangilash, pedagogik jarayonni takomillashtirish, o'qituvchilar tarkibi sifatini yaxshilash orqali rejalashtirilmoqda.

Barchamizga ma'lumki, iqtisodiyot rivojida ortda qolish xavfi asosan samarali ta'lim modelini yaratmagan davlatlarga xosdir. Bundan ko'rinadiki, bilimlarga asoslangan ochiq fuqarolik jamiyatini, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yar ekanmiz, eng avvalo mamlakatimizda ta'lim tizimini faol tarzda takomillashtirib borishimiz zarur.


Bu borada YUNESKO tomonidan muntazam oliy ta'limni rivojlantirish bo'yicha tavsiyanomalarni ishlab chiqish, xalqaro hamkorlikning me'yoriy asoslarini yaratish bo'yicha yangi g'oyalarni ilgari surib kelinmoqda. Akademik erkinlik va demokratiyaning universal me'yorlarining mavjudligi, YUNESKO va Evropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan, milliy ta'lim tizimlari uchun tobora me'yoriy ahamiyat kasb etayotgan halqaro konvensiyalar hamda butun jahon deklaratsiyalari bu jarayonlar uchun asos bo'lmoqda[1].

Asosiy qism

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalarning zamonaviy kasbiy bilimlari va qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga muvofiq oliy ta'lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi. Shu nuqtai-nazardan zamon talablari asosida o'quv jarayonini tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish ilmiy tadqiqotlar natijalarini rivojlantirish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar maqsad qilib olingan.

Ushbu rasm ma'lumotlaridan shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, mamlakatimizda bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 10 yil ichida 2,5 barobarga oshirish rejalashtirilgan.




1-rasm. Bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi

2021 yilda bu ko'rsatkich 28 foizni tashkil etdi. Bunday ko'rsatkichga nafaqat mavjud oliy ta'lim muassasalarining qabul kvotalarini oshirish orqali, balki yangi oliy ta'lim muassasalarini ochish orqali ham erishish rejalashtirilgan.

Xususan, Universitetlar xalqaro assotsiatsiyasi (international association of universities) tomonidan blended learning, flipped classroom kabi strategiyalarga asoslangan ta'lim metodologiyalarini qo'llash, tegishli platformalar va raqamli vositalarni tanlash hamda ushbu jarayonlarni tashkil etish yuzasidan tavsiyanomalar ishlab chiqilgan [2]. Bir qator tadqiqotlarda qayd etilishicha, oliy ta'lim muassasalarida o'quv ishlarni masofadan turib tashkil etishda texnik va

me'yoriy cheklovlardan tashqari xodimlar jamoasini boshqarish, xodimlar faoliyati natijalarini baholash, ish haqini to'lash tizimini o'zgartirish va sharoitga mos keluvchi boshqaruv qarorlarini qabul qilishda jiddiy kamchiliklar kuzatilgan [3].

Stenford universiteti tomonidan tashkil etilgan "Educational reforms in Russia and China at the turn of the 21st century: a comparative analysis" nomli konferensiyada, jumladan, oliy ta'lim muassasalarida o'quv ishlarni boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar aksariyat holatlarda texnologiyalar, jamiyat hayotida yuz berayotgan jarayonlar, siyosiy kon'yuktura hamda "yumshoq kuch" ta'sirini kuchaytirish bilan bog'liq ekanligi qayd etilgan [4].



1.1-rasm. O'quv ishlarini tashkil etish tizimiga ta'sir etuvchi tashqi muhit parametrlari

Muallif tomonidan o'quv jarayonini boshqaruv va boshqaruv tizimiga berilgan talqinning qabul qilinishi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

o'quv ishlari tizimini tashkil etishda tashqi muhit talablari hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi, istalgan tashkilot global va milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimning ajralmas va uzviy qismi ekanligi qayd etiladi. Bu orqali boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi, missiyasi, maqsadlari va vazifalari aniq belgilab olinadi (*1.1-rasmga qarang*);

o'quv ishlarini tashkil etish tizimining asosiy elementlari hisoblanuvchi funksional strategiyalar, siyosatlar va protseduralarning iqtisodiy mohiyatiga aniqlik kiritiladi va tizimlashtiriladi;

boshqaruv tizimining maqsadi va funksional vazifalarini aniq belgilab olish imkoniyati yaratiladi;

tashqi muhit talablariga muvofiq bo'lgan boshqaruv tizimi shakllantiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv ishlarini tashkil qilish va rivojlanishi oliy

ta'lim xizmatlari sub'ektlari bo'lgan oliy o'quv yurtlari tomonidan tayyorlanadigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq. Chunki bozor munosabatlari sharoitida erkin raqobatga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida innovatsiya yangiliklarini kiritish asosidagina mamlakatni jahon xo'jaligi bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash respublikamizni ilmiy salohiyatidan foydalanish darajasiga bog'liq.

Oliy ta'limda o'quv jarayonining mohiyati davlat ta'lim standard fan bloklarida ko'rsatilgan bilimlarni yuqori darajada o'zlashtirib olish, zarur malaka, ko'nikmalarni egallashdan iborat. Talaba bilimlarni o'qib, tushunib, anglab esda saqlashi, gapirib (yozib) bera olishi, ulami tahlil qila olishi, boshqa o'quv topshiriqlarini bajarishda va amaliyotda qo'llay olish malakalarini ham egallashi zarur.

O'quv jarayonining muhim vazifalaridan biri yoshlardagi aqliy

qobiliyatni o'stirish, tug'ma iqtidor (iste'dod) kurtaklarini rivojlantirish, ulami barkamol shaxs, raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishdan iborat.

Oliy ta'limdagi o'quv jarayoni oliy malakali mutaxassisni tayyorlashdagi tashkiliy, boshqaruv, bilish faoliyatini rivojlantirish kabi ko'p qirralarni o'z ichiga oluvchi murakkab jarayondir.

O'quv jarayoni asosan o'quv mashg'ulotlari va nazorat jarayonlaridan tashkil topgan. O'quv mashg'ulotlari barcha turdagi akademik mashg'ulotlarni, talabalarning mustaqil ta'limi va malakaviy amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Nazorat jarayonlari talabalarning ta'lim dasturini qay darajada o'zlashtirganligini ko'rsatadi.

O'quv jarayonini rejalashtirish oliy o'quv yurtining o'quv faoliyatini boshqarishda muhim elementlaridan biri hisoblanadi. U quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- dastlab o'quv yili davomidagi asosiy o'quv jarayonlari va ularni amalga oshirish muddatlari aks ettirilgan akademik taqvim tuziladi;
- namunaviy o'quv rejaga qo'shimcha ravishda tanlov fanlarining ro'yxati shakllantiriladi;
- namunaviy o'quv reja va tanlov fanlari ro'yxatiga mos ravishda edvayzerlar yordami bilan, qayd qilish ofisi va dekan nazorati ostida har bir talabaning shaxsiy o'quv rejasi shakllantiriladi;
- ishchi o'quv rejalari tuziladi;
- fanlarning ishchi o'quv dasturlari (syllabus) ishlab chiqiladi;
- yo'nalish va mutaxassisliklarning ishchi o'quv rejalari mos ravishda kafedralarning o'quv yuklamalari rejalashtiriladi va professor-o'qituvchilarning shtat jadvali hamda ularga taqsimlangan kreditlar tasdiqlanadi;
- akademik potoklar va guruhlar kesimida dars jadvallari tuziladi.

Hozirgi kunda kredit-modul tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini xalqaro ta'lim muhitiga integratsiyalovchi mexanizmlaridan biri sifatida yuzaga kelmoqda. Bu tizimning o'ziga xos jihatlaridan biri shuki, bunda talabalarning mustaqil ta'limiga alohida urg'u beriladi, bu esa o'z navbatida bo'lg'usi mutaxassislarda butun umr davomida o'qib-o'rganish ko'nikmasini shakllantiradi.

Aynan shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limini modernizatsiya qilish bo'yicha keyingi qadamlar kredit-modul tizimini xalqaro akademik ta'lim tizimini tashkil qilishning asosi sifatida sinab ko'rishga qaratildi.

Ushbu maqolamizda oliy o'quv yurtlarida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va kredit-modul tizimini tatbiq qilish bo'yicha kompleks masalalar o'z aksini topgan. Uning maqsadi –oliy o'quv yurtlariga kredit-modul tizimida o'quv jarayonlarini tashkil qilish bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim qilishdir.

Maqolada kredit-modul tizimiga oid atamalar keltirilib va qisqa izohlab o'tilgan bo'lib, ular yangi tizimning asosiy tushunchalari bilan tanishishga, turli mamlakatlardagi ta'lim siyosatiga munosabat bildirishga va talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ko'p bosqichli yagonalashtirilgan xalqaro dasturlarga o'tishga imkon beradi.

Turli mamlakatlarning ta'lim amaliyotida kuzatilayotgan kredit-modul tizimining o'ziga xos talqini va yondashuvlari bayon qilingan. Kredit to'plashning Evropa va Amerika tizimlarining o'ziga xos jihatlarini ko'rsatib berilgan. Osiyo va Tinch Okeani regionlaridagi kreditlarni o'tkazish tizimlari tahlil qilib berilgan.

Oliy ta'lim tizimi ishtirokchilari uchun kredit-modul tizimida o'quv

jarayonining tashkiliy tuzilmasini xarakterlovchi bir qator masalalar

– o‘quv jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish, talabalarning mustaqil ta’limini tashkil qilish, talabalarning bilimini va malakaviy amaliyotlarini baholash, talabalarning o‘qishini ko‘chirish, ularni o‘qishdan chetlashtirish va o‘qishga tiklash, masofaviy ta’lim shaklida o‘quv jarayonini amalga oshirish kabi masalalar juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. ЮНЕСКО. Цели образования в интересах устойчивого развития. Париж 2012. С.71.
2. Teachers’professional development. Europe in international comparison. An analysis of teachers’ professional development based on the OECD’s Teaching and Learning International Survey (TALIS) (2010) European Union, Printed in Belgium.
3. Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.
4. Barber, M., Neither Rest nor Tranquillity, speech at the National Education Summit, Washington D.C., 15 September 2008 [elektronnyy resurs].